


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston texnik jihatdan
tartibga solish agentligi
Jamoatchilik kengashi raisi

 A. Pardayev

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Jamoatchilik
kengashining “3”-son yig‘ilish bayoni**

2026-yil “26” mart

Toshkent shahri

Raislik qildi:

Jamoatchilik kengashi raisi A. Pardayev

Qatnashdilar:

Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Agentlikning
bo‘lim va boshqarma boshliqlari, tizim
tashkilotlari rahbarlari

KUN TARTIBI:

- I. Jamoatchilik kengashi faoliyati sarhisobi;
- II. Agentlik tizim tashkilotlari, xususan O‘zbekiston milliy metrologiya instituti faoliyati yuzasidan 2026-yil I chorak natijalari
- III. Metrologiya sohasida mavjud muammolar, amalga oshirilayotgan islohotlar va istiqboldagi vazifalar muhokamasi

Moderator R.Rasulov yig‘ilishni ochib, kun tartibi va asosiy mavzular bilan qatnashchilarni tanishtirdi.

Jamoatchilik kengashi raisi A. Pardayev tomonidan kengash faoliyati, ochiqlikni ta‘minlash, jamoatchilik nazorati hamda sohadagi islohotlarni keng jamoatchilikka yetkazish masalalari yuzasidan ma‘lumot berildi.

Shundan so‘ng, O‘zbekiston milliy metrologiya instituti tomonidan 2026-yil yanvar–mart oylarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot taqdim etildi.

Hisobotga ko‘ra, institut tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 52,5 mlrd so‘mni tashkil etib, reja 103 foizga bajarilgan. Moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlarda ijobiy o‘sinh qayd etildi.

Milliy etalonlar bazasini rivojlantirish, laboratoriyalarni modernizatsiya qilish hamda yangi etalonlarni xarid qilish bo‘yicha ishlar davom etayotgani ta‘kidlandi. 2026-yilda 19 ta yangi yuqori aniqlikdagi etalon xarid qilish rejalashtirilgan.

Shuningdek, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, BIPM doirasidagi CMC-qatorlarni oshirish va xalqaro loyihalarda ishtirok etish masalalari ko'rib chiqildi.

Ilmiy salohiyatni oshirish, mutaxassislar malakasini oshirish va xorijiy tajriba almashinuvi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham alohida qayd etildi.

Ayrim tarkibiy bo'linmalarda reja ko'rsatkichlarining to'liq bajarilmayotgani tanqidiy muhokama qilinib, mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Qo'shimcha axborot:

Institut tomonidan metrologiya xizmatlari eksporti kengayib, xalqaro hamkorlik geografiyasi rivojlanmoqda. Normativ hujjatlar va strategik dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Kengash raisi tomonidan takliflar:

Natijadorlik va ijro intizomini kuchaytirish

Ayrim tarkibiy bo'linmalarda reja ko'rsatkichlari to'liq bajarilmayotgani sababli, har chorakda KPilar ijrosi bo'yicha keskin nazoratni kuchaytirish va mas'ul rahbarlar javobgarligini oshirish.

Milliy etalonlar bazasini tezkor modernizatsiya qilish

2026-yil uchun rejalashtirilgan 19 ta yuqori aniqlikdagi etalonni xarid qilish jarayonini jadallashtirish, xaridlar shaffofligi va samaradorligini ta'minlash.

Xalqaro integratsiyani kengaytirish

BIPM doirasidagi CMC qatorlarini oshirish, xalqaro akkreditatsiya va tan olinadigan kalibrlash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha maxsus "yo'l xaritasi" ishlab chiqish.

Metrologiya xizmatlari eksportini rivojlantirish

Xorijiy hamkorlar bilan shartnomalar sonini ko'paytirish, eksport geografiyasini kengaytirish hamda xizmatlar marketingi va brendingini kuchaytirish.

Kadrlar salohiyatini mustahkamlash va ilmiy rivojlanish

Mutaxassislarni xalqaro tajriba almashinuvi dasturlariga yuborish, laboratoriya xodimlari malakasini oshirish hamda yosh kadrlarni jalb etish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqish.

Yig'ilish yakunida metrologiya sohasini rivojlantirish, xalqaro nufuzni oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Bayonni tuzdi



N. Mamaziyayeva